

20-May, 2025-yil

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Shonazarova Gulyora Baxtiyorovna

“Innovatsion menejment” kafedrasi ilmiy dotsenti

Xolboyev Yusuf O’tkir o’gli

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim subyektlardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Ular korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritadi va iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘sqliarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat’iy qadamlar tashladik. Aynan shu bois har bir sarmoyador o‘zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirayapmiz⁹. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruvni takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlikning ham muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi bosqichda O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini erkinlashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va xorijiy investorlarga yanada jozibador qilish bo‘yicha huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, korporativ boshqaruvning qonunchilik asoslarini kuchaytirish orqali jamiyatlar faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirish maqsad qilinmoqda.

Aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruv tizimining asosiy huquqiy shakllaridan biridir. Uning mavjudligi korporatsiyalarning shaffofligi, egalar va menejerlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, hamda sarmoyadorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi¹⁰.

Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimi huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va axborot komponentlarining uyg‘unligida shakllanadi. Uning samarali faoliyati uchun boshqaruv organlarining vakolatlari aniq belgilangan bo‘lishi, strategik rejalashtirish, korporativ nazorat va aksiyadorlar bilan samarali muloqot mexanizmlarining mavjudligi muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimining ayrim kamchiliklari mavjud: masalan, qarorlar qabul qilishda shaffoflikning yetishmasligi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlarining zaifligi, korporativ madaniyatning yetarlicha shakllanmagani va tashqi investorlar ishonchining pastligi. Shu boisdan, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy qilish orqali boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur.

⁹ Shavkat Mirziyoyev, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqidan.

¹⁰ T.M. Isroilov, X. K. Yusupov. “Korporativ boshqaruv” darslik

20-May, 2025-yil

Aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli va ichki tuzilmasi uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli boshqaruv modelining ehtiyyotkorlik bilan tanlanishi korporativ barqarorlikni ta'minlaydi¹¹. Aksiyadorlik jamiyatlari korxona resurslarining samarali boshqarilishini va mulkdorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari orqali iqtisodiyotda kapital harakati va investitsiya muhitining jonlanishiga erishish mumkin.

Boshqaruvni takomillashtirish yo'nalishlari quydagilardan iborat:

1. Huquqiy bazani mustahkamlash – aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, korporativ boshqaruv standartlarini amaldagi qonunchilik bilan uyg'unlashtirish;
2. Korporativ boshqaruv kodeksini to'liq joriy etish – samarali kuzatuv kengashlarini shakllantirish, mustaqil direktorlar instituti faoliyatini kuchaytirish;
3. Axborot ochiqligi va shaffoflikni ta'minlash – jamiyatning moliyaviy holati, strategiyasi va qaror qabul qilish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam e'lon qilish;
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – raqamli boshqaruv platformlari, elektron ovoz berish tizimlari, onlayn hisobot tizimlarini joriy qilish;
5. Tashqi va ichki audit tizimlarini mustahkamlash – buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning halolligi va haqqoniyligini ta'minlash;
6. Kadrlar salohiyatini oshirish – boshqaruv xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, menejment madaniyatini shakllantirish va korporativ etika tamoyillariga amal qilish.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarini xususiyashtirish, ularni raqobatbardosh va investitsion jozibador subyektlarga aylantirish, ularning boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish alohida e'tiborda turibdi. Ushbu yondashuv mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini tezlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish nafaqat mazkur tashkilotlar samaradorligini oshirish, balki butun iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish, shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash, strategik boshqaruvni ilg'or texnologiyalar asosida olib borish bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.M. Isroilov, X. K. Yusupov. “Korporativ boshqaruv” darslik.
2. Isroilov T.M., Yusupov X.K. Korporativ boshqaruv. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. – 103-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqidan.
4. O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

¹¹ Isroilov T.M., Yusupov X.K. Korporativ boshqaruv. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. – 103-bet.